

## **SOYA O‘G‘RISI CHINDAN O‘G‘RIMI?**

**Sodiqjonova Yoqutxon**

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Mark Levining «Soya o‘g‘risi» asaridan olingen taassurotlar, undagi inson qalbidan o‘tgan barcha kechinmalar yoritilgan. Maqolada ba’zan o‘zimiz o‘ylamagan ba’zi bir detallar inson hayotini tubdan o‘zgartirib yuborishini ko‘rishimiz mumkin.

### **Аннотация**

В этой статье освещены впечатления от произведения Марка Леви «Похититель теней» и все переживания человеческого сердца в нем. В статье мы можем увидеть, что иногда некоторые детали, о которых мы не подумали, могут в корне изменить жизнь человека.

### **Annotation**

In this article, the impressions of Mark Levy's work "Shadow Thief" and all the experiences of the human heart are covered in it. In the article, we can see that sometimes some details that we did not think about can radically change a person's life.

**Kalit so‘zlar:** soya, qahramon, muhabbat, varrak, nomzod, shifokor.

**Ключевые слова:** тень, герой, любовь, летающий змей, кандидат, доктор.

**Keywords:** shadow, hero, love, kite, candidate, doctor.

Fransuz adibi Mark Levining «Soya o‘g‘risi» nomli kitobi qo‘limga tushib qoldi. To‘g‘risi, asarga tanlangan nom meni o‘ziga jalb qildi. Va ilk tasavvurning o‘zidayoq “soyani ham o‘g‘irlab bo‘lar ekanmi?” degan o‘y kaminani qamrab oldi. Hayajon-la asarga kirish qadamin qo‘yar ekanman, nigohim “bilasanmi, muhabbatda, eng asosiysi - tasavvur” jumlasiga tushdi. Chindan ham inson erishmoqchi bo‘lgan maqsadiga asliyatdan qolmishmaydigan tarzda tasavvur qilar ekan u, albatta o‘zi ko‘zlagan maqsadiga yetishadi. Kerak bo‘lsa unga butun olam yordam beradi. Romanda berilgan ushbu satrlarning o‘ziyoq asarning butun bir yaxlitligini sirli tarzda “tasavvur” va “muhabbat” so‘zlari ochib bergen. Asar bosh qahramonning mifik davrlarini eslash bilan boshlanar ekan, u sinfdagi yoshi, ham bo‘yi jihatdan eng kichikligini aytadi. 6-sinf paytalaridanoq sinfdoshiga gavdali yigit Markes doim kamsitib, uni turli beo‘xshov qiliqlari bilan uyatli hollarga solishi, ustiga-ustak u sinfdoshini, yoqtirgan qizi Elizabeth oldida mazah qilishi bu bosh qahramonni noqulay ahvolga solib qo‘yanida ham, u o‘ziga o‘zi «hammasi yaxshi bo‘ladi, mana ko‘rasan» deya dalda beradi.

Hatto ingliz tili ustozi madam Sheffer savoliga javob berolmay, maktab hovlisidagi xazonlarni supurishga jazolansa-da, baribir o‘zida kuch topa olardi. Ammo, birgina holat qahramon hayotini o‘zgartira olishiga turtki bo‘ldi. Qanday deysizmi? Buni uning soyasi ko‘magi ostida amalga oshirildi.

Qizig‘i birgina na qo‘limiz bilan ushlay oladigan, na yugurib yeta oldigan soya, dadasi uni tashlab ketsada, u yolg‘iz qolmagan, yonida yaqin sirdosh do‘sti yo‘q bo‘lsada, uning oldiga yaqin do‘st to‘plagan soyasi bo‘ldi. Maktab qorovuli Iv bilan uchrashuvi u uchun tasodif emas edi. Iv bosh obraz bola orqali bolaligiga, onasi bilan birga o‘tkazgan damga qaytgandek o‘zini his qiladi. Bola endigina birinchi marotaba kimgadir o‘z sirini qo‘rmasdan ayta oldi. Ya‘ni, soya haqida bo‘lgan barcha voqealardan Ivni boxabar qiladi. Jasoratga bo‘lgan qadam ham soya bilan kechdi. Har yili sinf sardorligiga Markes o‘z nomzodligini qo‘yganda “sen o‘z nomzodingni qo‘yishni hatto xayolinga ham keltirma” - degan so‘zi, bolani dadillikka undagan edi. Ammo unga Lyuk ismli sinfdoshining ishonchi tufayli bola qalbidan qo‘rquvni yenga oldi. Nafaqat u sinf sardorligiga nomzodini qo‘ydi, balki g‘olib ham chiqdi. Ishonch bolaga Lyuk kabi chiq o‘rtoqni tuhfa etdi. Darsdan so‘ng maroqli suhbat paytlarida bola Lyukda novvoylik kasbining egasi bo‘lishini, o‘zi esa hisobchi yoki shunga o‘xhash papka olib yuradigan biror kasbni egallashini oldindan ko‘rardi.

Asarda bosh obraz xususiyatida mavjud oldindan sezish qobiliyati kuchli ekanligiga guvohi bo‘lishimiz mumkin. Kutilmaganda inson hayotida qisqa davrlar ham katta burilish yasaydi. Roman qahramoni yozning ajib kunlarida mana shunday kutilmagan hodisalarga duch kelishi, yashashda haqiqiy ma‘noni tuyishida bir kar va gung Klea ismli qizchaning sababchi bo‘lishi bu hayratlanarli. Klea plajda bola bilan tanishgan kezları tilida ifodalay olmaydigan so‘zlarini havoda yozishga urinadi. Mitti qalb egasi bo‘lgan qizgina bolaning ko‘ngliga so‘zsiz qaynoq mehri bilan kirib borishi mustahkam do‘stlik rishtalarini bog‘lanishiga turtki bo‘ldi. Kleaning soyasi ham bolaning soyasi bilan tutashganda, qizchaning soyasida sof, tiniq so‘zlarini eshitadi. Go‘yo musiqa sadosidek. Kunlar tobora o‘tib, ta’til vaqtı yakunlanib borar ekan, yanagi ta’tilda kelishga berilgan va’da ado etilmay qoladi. Balki, qasam vaqtida ustidan chiqilmagandir.

Ammo yillar o‘tib va’da ajoyib tarzda ado qilindi. Qahramonimiz bo‘lajak shifokor bo‘lish arafasida u kursdoshi Safi bilan birgalikda o‘qish davomida do‘stlik iliq muhabbatga aylanar ekan, yigit yuragidagi bir kemtik do‘stlikni muhabbat bo‘lishiga sira yo‘l bermaydi. Talabalik davrida ham soya uning eng yaqin hamrohi bo‘lib qoladi. Safi bir qizaloqning dardiga da‘vo topolmay yordam ilinjida yigitdan maslahat so‘ragan kezlarida, uning soyasi bemor qizaloq ahvoldidan xabardor bo‘lib, barchasini yigitga so‘ylab beradi. Ya‘niki, qizchaning mushugi yo‘qolganidan tushkunlikka tushib, tuz ham totmay kasal bo‘lib qoladi. Yigit hammasini bilgach, tezkorlik bilan qizaloq dardiga da‘vo topadi. Soyanning yana bir yordami do‘sti Lyukning o‘z singari talabalar qatoridan joy olishiga belgi bo‘ldi. Lyuk ilm dargohida tibbiyot sirlarini o‘rganish mobaynida Kleaning topolishida katta jonbozlik ko‘rsatdi. Chin do‘stning

sadoqati mana shunday damda bilinishi insonni quvontirib yuboradi. Biroq, Lyuk ba'zi muammolar tufayli o'qishni tark etib, novvoylikni davom ettiradi. Bunda biz asar boshlarida bosh qahramon tasavvur qilgan holatni ko'ramiz. Lyuk haqiqatdan ham novvoy bo'lib qoldi. Yigit uni shifokor bo'lishini xohlasa-da. Ha, qahramonimiz asl baxti, muhabbat bo'lган Klea bilan o'shal bolalik onlarida birga varrak uchurgan maskanda qayta ko'rishar ekan, qizning hamon havoda yozishni unutmagan varragi bilan «men seni sog'ingan edim» satrlari orqali necha yillar o'tsada, Klea yigitni kutganligini sezamiz. Roman so'nggida bosh qahramonimiz kech bo'lsa-da so'zining ustidan chiqadi hamda shu bilan birga o'zining asl, samimiyl muhabbatiga yetadi. Asarni mutolaa qilish mobaynida o'quvchi ko'ngliga xotirjamlik yuguradi. Yuziga iliq kayfiyat baxsh etadi. Tasavvur ko'lami kutilmagan vaziyatlar bilan boyish bilan birga xushyorlikka chaqiradi. Biz bosh qahramon soya ortidan o'z maqsadiga erishdi deya o'ylashimiz mumkin. Aslidachi? Aslida yigit uchun soya bir turtki xolos. Tibbiyot jihatdan oladigan bo'lsak, odamda sezish, his qilish a'zolari bo'ladi. Yuragimiz, burnimiz, tilimiz sanasak davom etaveradi. Falsafiy tomondan olib qarasak, insonga tegishli, ammo odam a'zosi bo'lмаган ба'зи narsalar orqali ham biz biron jarayonni oldindan bilishimiz mumkin. Bu sezgilar bizni ogoh etadi yoki harakatga tayyorlaydi. Asarda ham soya qahramonni oldindan bo'ladigan hodisalarda unga do'st bo'lib yordam qo'lini cho'zdi. Va kerakli vaziyatlarda turtki bo'la oldi. Bir so'z bilan aytganda “|hayotimizning eng qimmatbaho lahzalari ko'pincha oddiy narsalarga bog'liq bo'ladi.” “Ba'zan biz oddiy deb bilgan narsalar yashashimiz uchun hayotimiz mazmuniga aylanib, eng qadrli hadiyani tortiq qiladi.” Asarni o'qib shuni bildimki, odamzod hayotda nimaga erishmoqchi bo'lmasin, unga o'sha narsa qismati bo'lar ekan.

Romanning kirish qismida ko'zim bir jumлага tushgandi. Endi shu Vilyam Shekspet aytgan satrlari bilan yakunlamoqchiman “Soyani tutmoqchi bo'lganga, Baxt soyasi qismat bo'lur.” Azizlar umr yo'limizda hammamizga baxt yor bo'lsin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mark Levining «Soya o'g'risi» kitobi
2. <https://kitobman.uz>
3. <https://m.facebook.com>